



O’N IKKI MAQOM VA UNING TARIXIY JARAYONLARI

Muallif: Yulodshev Umidjon Yuldoshevich ¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti “Musiqqa ta’limi” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14384699>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o’n ikki maqomning shakllanish shart-sharoitlari, uning tarixiy bosib o’tgan yo’li, maqom tushunchasi, mazmuni va o’zbek va tojik xalqlarining mumtoz musiqasi hisoblangan “Shashmaqom”ning tarkib topish shart-sharoitlari hususida fikr bildirilgan.

Kalit so’zlar: maqom, o’n ikki maqom, muhom, raga, klassik musiqqa, kasbiy musiqqa, an’ana, tarix, taraqqiyot, turkum musiqqa.

Musiqqa san’ati haqida gap borganda, uning mashaqatli va mazmunli tarixiy taraqqiyot yo’li haqida to’xtalmaslikning iloji yo’q. Ma’lumki, yer yuzida yashovchi turli tilli, turli dinli, turli madaniyatli bo’lgan barcha xalqlarning o’z madaniyati va san’ati, shuningdek, musiqiy merosi mavjud bo’lib, ushbu ma’naviy meros mazkur xalqlarning yuksak ma’naviy boyligi hisoblangan. Ayniqsa, bu borada Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati har bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va amaliy musiqqa ijrochilik maktablariga ega bo’lgan. Sharq xalqlarining musiqiy merosi boyligi bo’lgan maqom, mug’om, navba, raga, kyui singari mumtoz professional musiqiy ijrochiligining aniq turkumlari turli davrlarda turli ko’rinish, shakl, usul, vosita va yo’nalishlar bilan ijro etilib kelingan va rivojlanib kelmoqda.

Xuddi shuningdek, o’zbek musiqqa merosida mumtoz kasbiy musiqqa san’atida maqom va uning turkumlari, shu jumladan xam o’zbek va tojik xalqlarining ulkan musiqiy boyligi hisoblangan “Shashmaqom” asarlari xalq bastakorlari ijodi natijasida shakllangan va ravnaq topgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Hozirga kelib, ushbu turkum ijrolarining aniq shakliga, xarakteriga va an’anaviy ijro uslublariga ega ekanligi quvonchi hol. Biroq, bugungi globallashuv jarayonida biz ushbu qo’limizda mavjud bo’lgan manbaalar bilan kifoyalanib qolishimiz, kelajak musiqqa avlodlari oldida yetkazishimiz lozib bo’lgan musiqqa merosimizni to’laligicha va buzilmagan holda yetkazish kabi mas’uliyatimizdan bir oz og’ishgan bo’lamiz.

Buning asosiy boisi shundaki, o’tgan maqomdon va bastakor ustozlarning bu borada qilgan ulkan ijodiy mehnatlarining natijasida yuzaga kelgan maqom tarkibining XII-XVII asarlarda naqadar ulug’qorligi hamda tarkibida o’n ikki maqom bilan kengligi ko’z-ko’z qilgudek musiqiy merosimiz borligi bilan faxr tuyg’usini aytib o’tishimiz lozimdir. Maqom ijrolari musiqiy madaniyatimizning asosini tashkil etganligi sababli

bugangi globallashuv sharoitida mazkur mavzuga ko'prok to'xtalib o'tishimiz mavzuning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda mavuom atamasi va uning mazmuni haqida to'xtalib o'tsak. "Maqom" so'zining lug'aviy ma'nosi arabchadan kelib chikkan bo'lib, "joy", "ma-kon", "o'rin" ma'nosini anglatadi. Musiqiy ma'noda maqom tovush hosil qiladigan joy yoki aniq parda ma'nosini tushunish demakdir. Albatta, ijroda tovushsiz yoki aniq pardasiz tovush, ohang, kuy, ashula shakllanmaydi va aniq musiqiy oxangni kashf etolmaydi. "Maqom" so'zining ma'nosi shundan kelib chiqqan bo'lishligi tabiiy holdir. Chunki maqom aniq pardadan boshlanadigan va tugallanadigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi.

Maqom atamasi VIII-X asrlardan Uklidis, Arastu singari yunon olimlarining musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlarning arab tiliga tarjima kilinishi natijasida qo'llanila boshlangan degan g'oyalar ham mavjud. X asrda yashab ijod etgan Yaxyo bin Abu Mansurning musiqa nazariyasiga doir asarida, musulmon Sharq xalqlarida yunon musiqa nazariyasidan oldin ham o'z yerlik xalqlarning o'ziga xos musiqa nazariyasi mavjud bo'lganligini aytib o'tadi.

Maqomlarning nazariy va amaliy tomonlarini IX-XV asrlarda yashab ijod etgan al-Kindiy, al-Forobiy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Urmaviy, ash-Sheroziy, al-Xusayniy, al-Marvaziy singari ulug' olimlarning aynan musiqa merosiga bag'ishlangan juda ko'plab bitilgan asarlarida chuqur ilmiy sharxlar bilan asoslab berilgan.

Bu jarayonlar XIV-XVII asrlarda Markaziy Osiyo, Xuroson, Ozarbayjonda ham o'n ikki makom (duvozdax makom) mavjud bo'lganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topganligi, ko'pgina yozma manbaaalarga qayd etilgan.

O'n ikki makom haqida aniq ma'lumotlarni XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan olimlar Najmiddin Kavkabiyy, Buxoriy va Darvesh Ali Changiy o'z asarlarida aks ettirib berganlar. Ularning risolalarida Buxoro xonligi davrida ijro etilgan o'n ikki makom va ular asosida bastakorlar tomonidan bastalangan kuy va ashulalar va bastakorlar haqida ma'lumotlar berilganligi mazkur sohada o'n ikki maqom bilan bog'liq ma'lumotlar haqidagi fikrlarni yana jonlashtirish lozimligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqib xulosa kilish mumkinki, o'n ikki makom XVIII asr va undan keyingi to O'rta Osiyoda xonliklar va amirlikni tugatilishiga qadar mavjud bo'lgan va aholining ijtimoiy musiqa merosida yetakchilik qilgan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda XVIII asrning oxirlariga kelib, O'zbekiston va Tojikiston xududida o'n ikki maqom asosida shashmakom asarlari tartibga solinganligiga to'la asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1997.

Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - T.: Fan, 1993.

Mannopov S. O'zbek xalq musiqasi madaniyati. O'quv qo'llanma. 2004. 148 b.